

KRIPTOVALYUTALAR VA AN'ANAVIY MOLIIYA TIZIMI O'RTASIDAGI RAQOBAT

Nomozov Xusan Axmat o'g'li

*TerDU Yuridik fakulteti "Jinoyat huquqi va
fuqarolik protsessi" kafedrasi o'qituvchisi*

Turaqulova Zarina

Yuridik fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy iqtisodiyotning eng dolzarb masalalaridan biri – kriptovalyutalar va an'anaviy moliya tizimi o'rtasidagi raqobat hamda o'zaro ta'sir jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida kriptovalyutalarning mohiyati, ularning markazlashgan moliya tizimlaridan farqli jihatlari va jahon iqtisodiyoti rivojidagi istiqbolli o'rni yoritib berilgan. Shuningdek, raqamli aktivlarning an'anaviy bank-moliya sektoriga ko'rsatayotgan ta'siri, vujudga kelayotgan xavf-xatarlar va yangi imkoniyatlar atroflicha o'rganilgan. Maqola yakunida kriptovalyutalarning kelajakdagi transformatsiyasi hamda ularning iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi salohiyati yuzasidan xulosa va tavsiyalar ilgari suriladi.*

Kalit so'zlar: *kriptovalyuta, blokcheyn, an'anaviy moliya tizimi, raqamli iqtisodiyot, fintex, iqtisodiy transformatsiya, investitsiya, markazsizlashgan moliya (DeFi).*

KIRISH.

Avvalambor, kriptovalyuta tushunchasi haqida to'xtaladigan bo'lsak, kriptovalyuta bu jismoniy ko'rinishga ega bo'lmagan, faqat raqamli shaklda mavjud bo'lgan, markazlashmagan (banklarsiz) va kriptografik himoyaga ega elektron pul birligidir. Ular [blokcheyn] (taqsimlangan reestr) texnologiyasiga asoslanib, butun dunyo bo'ylab xavfsiz va anonim tranzaksiyalarni amalga oshirish imkonini beradi. Kriptovalyutaning asosiy xususiyatlari quyidagilarni tashkil etadi:

- ✓ Hukumatlar yoki banklar tomonidan boshqarilmaydi, emissiyasi (chiqarilishi) qat'iy cheklangan yani uning markazlashmaganligi;
- ✓ tranzaksiyalar bitta qurilmada emas, balki tarmoq ishtirokchilarining barchasida saqlanadi bu blokcheyn orqali;
- ✓ Shifrlash (kriptografiya) tufayli qalbakilashtirish qiyin bu uning xavfsizlik xususiyati;
- ✓ Maxsus elektron hamyonlarda saqlanadiya'ni raqamli hamyonlarada; Kriptovalyutalar an'anaviy moliya tizimidan mustaqil bo'lib, internet orqali to'g'ridan-to'g'ri (peer-to-peer) o'tkazmalarni amalga oshiradi.

ASOSIY QISM

Hozirgi kunda kriptovalyutalar sonini aniq belgilash qiyin, chunki ular doimiy ravishda paydo bo'lib va yo'qolib turadi. Shunga qaramay, ayni vaqtda bozorning qariyb 50 foiz ulushi

eng birinchi va eng mashhur kriptovalyuta – **Bitcoin** (2009) hissasiga to'g'ri keladi.³⁷ Agar eng yirik 10 ta kriptovalyutani hisobga olsak, ular umumiy bozorning taxminan 85 foizini egallaydi. Demak, kriptovalyutalar soni juda ko'p bo'lsa-da, qolgan 15 foiz kichik ulushga ega loyihalar hissasiga to'g'ri keladi. Biroq, ular orasidan ham kelajakda Bitcoin kabi yetakchi o'rinlarni egallashi mumkin bo'lganlari chiqishi ehtimoldan xoli emas. Kriptovalyutalar maxsus elektron hamyonlarda saqlanadi. Bunday hamyonlarning turlari ko'p bo'lib, odatda har bir kriptovalyuta uchun alohida hamyon mavjud. Undan foydalanish uchun foydalanuvchi lotin harflari va raqamlar kombinatsiyasidan iborat o'z manziliga ega bo'ladi, bu manzil ko'pincha **QR-kod** ko'rinishida ham taqdim etiladi. Hamyon tanlashda ishonchli va vaqt sinovidan o'tgan variantlarga ustunlik berish muhim. Chunki noma'lum yoki shubhali hamyonlardan foydalanish mablag'larning xakerlar qo'lga tushib ketishiga va yo'qolib qolishiga olib kelishi mumkin.

Kriptovalyutani himoya qilish usullari ham turlicha: *master kalitlar, maxfiy kalitlar, seed (sirli)* iboralar va boshqalar shular jumlasidandir. Yuqori darajadagi xavfsizlikni ta'minlash uchun bunday ma'lumotlarni internetga ulanmagan qurilmalarda, masalan, oddiy USB flesh xotirada yoki hatto qog'ozda saqlash tavsiya etiladi. Bundan tashqari, kalit yoki iboralarning bir nechta nusxasini yaratib qo'yish muhim, chunki yo'qotilgan taqdirda aslini tiklash faqat shu orqali mumkin. Aks holda, yo'qolgan mablag'ni qaytarib olishning imkoni bo'lmaydi. Bitcoin dastlab kundalik to'lov vositasi sifatida yaratilgan bo'lib, u orqali bir chashka qahvadan tortib kompyuter yoki hatto ko'chmas mulk kabi qimmatbaho buyumlarni xarid qilish rejalashtirilgan edi. Biroq, bu maqsadlar hozircha to'liq ro'yobga chiqmagan. Garchi kriptovalyutalarni qabul qiluvchi tashkilotlar soni ortib borayotgan bo'lsa-da, ular yordamida amalga oshiriladigan yirik bitimlar hanuz kam uchraydi. Shunga qaramay, kriptovalyutalardan elektron tijorat platformalarida turli mahsulotlarni xarid qilishda foydalanish imkoniyati mavjud.

Shuningdek, "Kriptoiqtisodiyot" atamasi dastlab **Ethereum** hamjamiyati tomonidan 2014–2015-yillarda shakllantirilgan bo'lsa-da, uning asosiy g'oyalari ilk bor 2008-yilda Bitcoin protokolida iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini qo'llash orqali namoyon bo'lgan. Mazkur termin ko'pincha Vitalik Buterin nomi bilan bog'lansa-da, uning birinchi tizimli va ommaviy ta'rifi 2015-yilda Vlad Zamfir tomonidan "Kriptoiqtisodiyot nima?" mavzusidagi ishlarda ilgari surilgan.³⁸ Zamfir tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, kriptoiqtisodiyot – bu markazlashtirilmagan raqamli iqtisodiyot sharoitida tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash hamda iste'mol qilish jarayonlarini tartibga soluvchi protokollarni o'rganadigan ilmiy yo'nalishdir. U ushbu sohani mazkur protokollarni ishlab chiqish va ularni konseptual jihatdan tavsiflashga qaratilgan amaliy fan sifatida izohlaydi. Bunga qo'shimcha ravishda, 2017-yilda Vitalik Buterin tomonidan bildirilgan yondashuv mazmunan yanada torroq va amaliy xarakterga ega bo'lib, unda kriptoiqtisodiyot ma'lum turdagi axborot xavfsizligi

³⁷ [https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/00136/136_i_20251225_182157_3%20\(28\).pdf](https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/00136/136_i_20251225_182157_3%20(28).pdf)

³⁸ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kriptoiqtisodiyot>

xususiyatlarini kafolatlashga qaratilgan tizimlarni yaratish metodologiyasi"deb o'z nutqida bayon qilgan.³⁹

Raqamli valyutalar aynan kriptovalyutalar an'anaviy moliya tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ular to'lov tizimlarida ba'zi afzallik hamda samarali natijalar ko'rsatmoqda masalan, ularni arzonroq qilish, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati hamda yangicha investitsiyalar yo'llarini yaratish orqali moliyaviy sektorga yangiliklar olib kelmoqda.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti ikki yirik qutb – asrlardan beri shakllangan **an'anaviy moliya tizimi** (fiat pullar va banklar) hamda nisbatan yangi bo'lgan **kriptovalyutalar** o'rtasidagi transformasiyani boshidan kechirmoqda. Garchi bu ikki tizim ko'pincha bir-biriga qarama-qarshi qo'yilsa-da, ular o'rtasida ham chuqur farqlar, ham muhim bog'liqlik nuqtalari mavjud. Asosiy farq – **boshqaruv mexanizmida**. An'anaviy moliya tizimi markazlashgan bo'lib, u davlatlar va markaziy banklar tomonidan tartibga solinadi. Tranzaksiyalar banklar kabi uchinchi tomon vositachiligida amalga oshiriladi. Kriptovalyutalar esa **blokcheyn** (taqsimlangan reestr) texnologiyasiga asoslangan bo'lib, markazsizlashgan (decentralized) xarakterga ega. Bu yerda "ishonch" organi bank emas, balki matematik algoritmlar va kriptografik kodlardir.

An'anaviy moliya tizimining muhim ustunliklaridan biri - huquqiy himoyaning mavjudligidir. Bank hisoblari bilan bog'liq muammolar yuzaga kelgan taqdirda, foydalanuvchilar qonuniy mexanizmlar orqali o'z mablag'larini qaytarib olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, ushbu tizim nisbatan barqarorligi bilan ajralib turadi. Fiat pullar, masalan so'm yoki dollar, kriptovalyutalarga nisbatan keskin volatillikka uchramaydi, ya'ni ularning qiymati qisqa muddat ichida keskin o'zgarib ketmaydi. Bundan tashqari, an'anaviy moliya tizimi keng ommalashgan bo'lib, dunyo aholisining katta qismi hamda aksariyat biznes subyektlari aynan shu tizimga ishonch bildiradi va undan faol foydalanadi. **Kriptovalyutalarning** asosiy ustunliklaridan biri – ularning tezkorligi va chegarasizligidir. Ular orqali dunyoning istalgan nuqtasiga mablag'larni bank ish kunlari yoki vaqtiga bog'liq bo'lmagan holda, juda qisqa fursatda, hatto bir necha daqiqa ichida o'tkazish mumkin.

Bundan tashqari, kriptovalyutalar yuqori darajadagi shaffoflikni ta'minlaydi. Blokcheyn texnologiyasiga asoslangan barcha tranzaksiyalar ochiq tarzda qayd etiladi va ularni o'zgartirish yoki soxtalashtirish deyarli imkonsiz hisoblanadi.

An'anaviy moliya tizimi va kriptovalyutalar o'rtasida ma'lum qarama-qarshiliklar mavjud bo'lishiga qaramay, ular tobora o'zaro yaqinlashib, integratsiyalashgan yangi iqtisodiy modelni shakllantirmoqda. Avvalo, infratuzilma darajasida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Yirik moliyaviy institutlar, jumladan JPMorgan Chase va Goldman Sachs kabi banklar o'z mijozlari uchun kripto-aktivlar bilan ishlash xizmatlarini joriy etib, ushbu sohani an'anaviy moliya tizimiga integratsiya qilmoqda. Bundan tashqari, kriptovalyutalarning yuqori volatilligini kamaytirish maqsadida stabilkoinlar yaratildi. Ular odatda fiat pullarga, xususan,

³⁹ <https://oqila.uz/kriptovalyuta-nima-va-nima-uchun-kerak>

AQSh dollariga bog'langan bo'lib, ikki tizim o'rtasida muhim vositachi - "ko'priq" vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, ko'plab davlatlar Markaziy bank raqamli valyutasi (CBDC) konsepsiyasi asosida milliy valyutalarning raqamli shakllarini ishlab chiqish ustida ish olib bormoqda. Masalan, Raqamli yuan kabi loyihalar kriptotexnologiyalarning afzalliklarini davlat moliya tizimiga tatbiq etishga qaratilgan bo'lib, kelajakdagi moliyaviy tizimlarning muhim elementi sifatida qaralmoqda. Yana bir muhim jihat — past komissiya xarajatlaridir. Ayniqsa, yirik xalqaro pul o'tkazmalarida an'anaviy bank tizimiga xos yuqori foiz to'lovlaridan qochish imkoniyati mavjud bo'lib, bu foydalanuvchilar uchun sezilarli iqtisodiy qulaylik yaratadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, kriptovalyutalar an'anaviy tizimni butunlay siqib chiqarmaydi, balki uni o'zgarishga majbur qiladi. Kelajak iqtisodiyoti ushbu ikki tizimning eng yaxshi jihatlarini o'zida mujassam etgan gibril moliya tizimidan iborat bo'lishi kutilmoqda. an'anaviy moliya tizimi va kriptovalyutalar dastlab bir-biriga raqib sifatida shakllangan bo'lsa-da, bugungi kunda ular o'zaro uyg'unlashib borayotgan ikki muhim moliyaviy yo'nalishga aylanmoqda. Texnologik innovatsiyalar, xususan stabilkoinlar va Markaziy bank raqamli valyutasi (CBDC) kabi tashabbuslar ushbu tizimlar o'rtasidagi tafovutni kamaytirib, ularni yagona integratsiyalashgan moliyaviy makonga olib kelmoqda. Shu bois, kelajakda moliya tizimi aynan ushbu ikki yo'nalishning o'zaro hamkorligi asosida yanada samarali va barqaror shaklda rivojlanishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Esanovna, D. B. "Electronic teksbook as a basic for innovative teaching." Mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman: 660.
2. Auer, R., Cornelli, G. and Frost, J., 2020. Rise of the central bank digital currencies: drivers, approaches and technologies. BIS Working Papers, 880. [Auer, R., Cornelli, G. va Frost, J., 2020. Markaziy bank raqamli valyutalarining yuksalishi: harakatlantiruvchi kuchlar, yondashuvlar va texnologiyalar. BIS ish hujjatlari,
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kriptoiktisodiyot>
4. <https://oqila.uz/kriptoalyuta-nima-va-nima-uchun-kerak>